2024-yil davomida “Uzbekistan Airports” AJda monopoliyaga qarshi komplayens tizimi faoliyatiga oid amalga oshirilgan ishlar yuzasidan
HISOBOT

T/r	Belgilangan vazifalar	Amalga oshirilgan ishlar
1	Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish va mazkur sohadagi qonunbuzilishlarning oldini olish maqsadida 2024-yilga mo‘ljallangan "yo‘l xaritasi" ishlab chiqilganligi va tasdiqlanganligi.	“Uzbekistan Airports” AJ tomonidan raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish va mazkur sohadagi qonunbuzilishlarning oldini olish maqsadida 2024-yilga mo‘ljallangan “yo‘l xaritasi" ishlab chiqilgan va “Uzbekistan Airports” AJ boshqaruv raisi tomonidan tasdiqlangan. Ushbu yuzasidan ma’lumot belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasiga taqdim etilgan.
2	Tashkilot faoliyatiga oid bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar yoki ichki hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish jarayonida ichki monopoliyaga qarshi komplaens bo‘linmasi (mas'ul xodimi) bilan majburiy tartibda kelishish tartibi joriy etilganligi.	“Uzbekistan Airports” AJ boshqaruv raisining 2022-yil 12-yanvardagi 1-2/01-12-son hamda 2024-yil 26-iyundagi 140Sh-sonli buyruqlari bilan raqobat to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablarining ehtimoliy buzilish xavflarini aniqlash va baholash hamda qonun hujjatlari talablariga muvofiqligini monitoring qilish maqsadida monopoliyaga qarshi komplayens bo‘yicha vakolatli shaxs tayinlanib, tashkilot faoliyatiga oid bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar

		yoki ichki hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish jarayonida monopoliyaga qarshi komplayens vakolatli shaxsi (mas’ul xodimi) bilan majburiy tartibda kelishish tartibi joriy etilgan. Xususan, 2024-yil davomida 6 ta ichki idorvaiy hujjatlar loyihalari ishlab chiqilgan bo‘lib, topshiriqqa asosan raqobat to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga talablariga muvofiqligini ko‘rib chiqish maqsadida ushbu loyihalarni ishlab chiqish jarayonida monopoliyaga qarshi komplayens bo‘yicha vakolatli shaxs Sh.Obidov ishtirok etgan.
3	Raqobat cheklanishiga, shuningdek raqobat yoki tabiiy monopoliya sharoitlarida iste'molchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishiga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan harakatlar haqida xabar berishga mo‘ljallangan aloqa vositalari tashkil etilganligi.	“Uzbekistan Airports” AJda raqobat cheklanishiga, shuningdek raqobat yoki tabiiy monopoliya sharoitlarida iste’molchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishiga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan harakatlar haqida xabar berishga mo‘ljallangan aloqa kanallari tashkil etilgan. Xususan: ishonch telefoni: + 998 55 501-47-04; rasmiy saytdagi sahifa: https://www.uzairports.com/; elektron pochta: info@uzairports.com; aloqa markazi: +99855-501-45-55; “uzbekistan airports.uz” veb-sayti yo‘lga qo‘yilgan.
4	Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishi holatlari oldi olinganligi.	2024-yil davomida 3 ta holatda tanlov hujjatlarida raqobatni cheklaydigan holatlar aniqlanganligi bois, quyidagi tashkilotlar: “Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroporti” MCHJ tomonidan “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunning 44, 62-moddalariga muvofiq Xarid komissiyasi

		tomonidan g‘olib tashkilot bilan shartnoma tuzilgunga qadar bo‘lgan davrda aksept junatilmasdan bekor qilish to‘g‘risida qabul qilindi. Shuningdek Xarid komissiyasi qarori bilan e’lon qilingan tanlov bekor qilinib, e-tender.uzex.uz platformasi orqali qayta savdoga chiqarildi. Bundan tashqari, baholash mezonlariga hamda raqobat sohasidagi prinsplarga amal qilinmaganligi, shuningdek tanlov hujjatlarda ishtirokchilar o‘rtasida raqobatni cheklaydigan yoki cheklashga olib kelishi mumkin bo‘lgan talablar mavjudligi bois “Qarshi xalqaro aeroporti” MCHJ tomonidan “Qarshi xalqaro aeroporti”da muhandislik kommunikatsiyalari bilan perimetr bo‘ylab yo‘l qurilishi” yuzasidan eng yaxshi taklifni tanlab olish bo‘yicha hamda “Urganch xalqaro aeroporti”da qurilish-ta’mirlash ishlarini amalga oshirish bo‘yicha e’lon qilingan lot bekor qilinib, qayta savdoga chiqarildi.
5	Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik buzilishi holatlari aniqlanganligi va ularni tartibga solish bo‘yicha choralar ko‘rilganligi.	2024-yil davomida kelib tushgan 19 ta murojaat kelib tushgan bo‘lib, murojaatlarni o‘rganish hamda o‘tkazilgan tekshirishlar natijasida 3 ta holatda, jumladan tanlov hujjatlarida raqobatni cheklaydigan holatlar aniqlanganligi bois, xususan “Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroporti” MCHJ tomonidan “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunning 44, 62-moddalariga muvofiq Xarid komissiyasi tomonidan g‘olib tashkilot bilan shartnoma tuzilgunga qadar bo‘lgan davrda aksept junatilmasdan bekor qilish to‘g‘risida qabul qilindi.

		Shuningdek Xarid komissiyasining qarori bilan e’lon qilingan tanlov bekor qilinib, e-tender.uzex.uz platformasi orqali qayta savdoga chiqarildi. Bundan tashqari, baholash mezonlariga hamda raqobat sohasidagi prinsplariga amal qilinmaganligi, shuningdek tanlov hujjatlarda ishtirokchilar o‘rtasida raqobatni cheklaydigan yoki cheklashga olib kelishi mumkin bo‘lgan talablar mavjudligi bois “Qarshi xalqaro aeroporti” MCHJ tomonidan “Qarshi xalqaro aeroporti”da muhandislik kommunikatsiyalari bilan perimetr bo‘ylab yo‘l qurilishi” yuzasidan eng yaxshi taklifni tanlab olish bo‘yicha hamda “Urganch xalqaro aeroporti”da qurilish-ta’mirlash ishlarini amalga oshirish bo‘yicha e’lon qilingan lot bekor qilinib, qayta savdoga chiqarildi.
6	Tashkilot faoliyatida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishi mumkin bo‘lgan sohalarni xavflar tasnifi asosida darajalarga bo‘linganligi.	“Uzbekistan Airports” AJ faoliyatida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishi xavflari mavjud bo‘lgan quyidagi soha va yo‘nalishlar ularning faoliyati hamda maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, “yuqori”, “o‘rta” va “past” darajadagi baholarda o‘rganildi. Xususan: “Uzbekistan Airports” AJning Xaridlar jarayoni bo‘limi – o‘rta; Yer usti inshootlari va muhandislik kommunikatsiyalardan foydalanish bo‘limi – past; Yonilg‘i-moylash materiallari bilan ta’minlash boshqarmasi – o‘rta; Aviakompaniyalar bilan o‘zaro hisob-kitoblar va tarifikatsiya bo‘yicha bo‘limi – o‘rta;

		Tibbiy ta’minotni rivojlantirish bo‘yicha bo‘limi – o‘rta; Yagona buyurtmachi xizmati bo‘limi – o‘rta; “Uzbekistan Airports” AJning smeta-shartnomalar bo‘limi – o‘rta; Yer usti inshootlari va muhandislik kommunikatsiyalardan foydalanish bo‘limi – past deb topildi. Natijasiga ko‘ra, raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishi xavfi darajasi yuqori yoki o‘rta deb topilgan soha va yo‘nalishlarda xavflarni pasaytirish bo‘yicha nazorat tadbirlari kuchaytirilib, chora-tadbirlar belgilandi.
7	Tashkilot faoliyatiga oid ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar va ichki hujjatlarning loyihalari o‘rganilganligi, bunda raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik talablarining buzilishini keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan normalar (holatlar) aniqlangan taqdirda, uni mazkur qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqlashtirish yuzasidan tegishli ishlar amalga oshirilganligi.	“Uzbekistan Airports” AJ Boshqaruv raisining topshirg‘iga asosan AJda normativ-huquqiy yoki ichki idoraviy hujjatlar loyihalari ishlab chiqilishi mutaxassislar hamda mas’ul xodimlardan iborat ishchi guruhi tuzilgan holda amalga oshiriladi. Ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar hamda idoraviy huquqiy hujjatlar loyihalari yuqori turuvchi organ, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi kelishilgan holda qabul qilish uchun belgilangan tartibda kiritiladi.
8	Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari o‘zgarishlaridan kelib chiqib, amaldagi ichki idoraviy hujjatlarga tegishli o‘zgartirishlar kiritish yuzasidan ishlab chiqilgan takliflar va ularning amaliyotga tatbiq etilganligi.	“Uzbekistan Airports” AJ Boshqaruv raisining topshiriqlariga asosan AJga tegishli barcha qonun hujjatlari, jumladan raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga kiritilayotgan o‘zgarishlaridan kelib chiqib,

		ichki idoraviy hujjatlarga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilib borilmoqda. Xususan, 2024-yil davomida raqobat to‘g‘risidagi va boshqa tegishli qonun hujjatlaridagi o‘zgarishlar va qo‘shimchalarni inobatga olgan holda quyidagi ichki idoraviy hujjatlar yangi tahrirda qabul qilindi: “Uzbekistan Airports” AJ yagona aksiyadori hisoblangan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 22-yanvardagi 1-son qarori bilan – “Uzbekistan Airports” AJning ustavi; Aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining Umumiy yig‘ilishi to‘g‘risidagi Nizom; Aksiyadorlik jamiyatining Kuzatuv kengashi to‘g‘risidagi Nizom; Aksiyadorlik jamiyatining Ijro etuvchi organi to‘g‘risidagi Nizom; Aksiyadorlik jamiyatining Divident siyosati to‘g‘risidagi Nizomlar yangi tahrirda qabul qilindi. (manba: https://uzairports.com/page/11)
9	Tashkilot xodimlarining raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalari oshirilganligi.	Boshqaruv raisining tegishli topshirig‘iga asosan “Uzbekistan Airports” AJ va uning tizim tashkilotlarida, jumladan xalqaro aeroportlarda davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya qilinishi, xususan “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonun talablariga qat’iy amal qilish yuzasidan sohaning tegishli xodimlariga 15 dan ortiq o‘quv-seminarlar tashkil qilindi.

		Xususan, savdolarda raqobatni cheklashga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan harakatlarga yo‘l qo‘ymaslik yuzasidan, jumladan xarid hujjatlariga va qoidalariga yoki e’lon matniga ishtirokchilar o‘rtasida raqobatni cheklaydigan yoki cheklashga olib kelishi mumkin bo‘lgan talablarni kiritmaslik, boshlang‘ich narxni shakllantirishning belgilangan tartibiga rioya etmaslik, shuningdek eng yaxshi takliflarning tanlovlarida, tenderlarda, auksionlarda va boshqa savdolarda raqobatni cheklaydigan yoki cheklashga olib kelishi mumkin bo‘lgan harakatlarga yo‘l qo‘ymaslik va boshqalar yuzasidan tegishli mutaxassislar tomonidan tushuntirishlar berildi. Raqobatni cheklashga qarshi talablarning buzilishi savdolar natijalari bo‘yicha qabul qilingan qarorlarni va tuzilgan shartnomalarni haqiqiy emas deb topish uchun asos bo‘lishi tushuntirildi.
10	Tashkilot xodimlarining raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablaridan qay darajada xabardorligini aniqlash maqsadida muntazam ravishda test sinovlari o‘tkazilganligi.	“Uzbekistan Airports” AJ va uning tizim tashkilotlarida, jumladan xalqaro aeroportlarda “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonun talablariga qat’iy amal qilish yuzasidan sohaning tegishli xodimlariga 15 dan ortiq o‘quv-seminarlar tashkil qilindi. Mazkur o‘tkazilgan har bir o‘quv-seminarda tashkilot xodimlarining raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablaridan qay darajada xabardorligini aniqlash maqsadida savol-javob tadbirlari tashkil etilib kelingan.

11	Tashkilot rahbari, ularning o‘rinbosarlari va mas'ul xodimlari tomonidan monopoliyaga qarshi komplayens tizimi faoliyati yuzasidan ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda chiqishlar.	2024-yil davomida “Uzbekistan Airports” AJ tomonidan tashkilot faoliyatiga oid o‘tkazilgan yig‘ilishlarda qonunbuzilish holatlarini, jumladan monopoliya va raqobatni cheklash holatlarini oldini olish masalalari yuzasidan Boshqaruv raisining birinchi o‘rinbosari A.Abdukadirov, AJning monopoliyaga qarshi komplayens bo‘yicha vakolatli shaxsi Sh.Obidov hamda Xaridlar jarayoni bo‘limi mas’ul xodimlari tomonidan OAVda 10 yaqin chiqishlari bilan ishtirok etishdi.